

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha murojaati

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/message/chairman-message-anti-corruption>

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari asosida korrupsiyaga qarshi preventiv mexanizmlarni qo'llash ustuvorlik kasb etayotganligi hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlashga qaratilgan aniq choralarning belgilab berilganligi muhim ahamiyatga egadur.

Birgina joriy yil dekabr oyida BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasi ko'magida o'tkazilgan Shayx Tamim Bin Hamad Ol Soniy tomonidan ta'xis etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yuksak mukofoti”ni topshirish marosimining Toshkent shahrida bo'lib o'tishi mazkur sohada mamlakatimizda olib borilayotgan amaliy ishlarning pirovard natijasi ekanligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir aniq-chora tadbirlarni belgilash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash kabi vazifalarni bajarish ustuvor hisoblanadi.

“O'zkimyosanoat” AJ tizimida yuqoridagi kabi chora-tadbirlarni belgilash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida bir qator ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar ishlab chiqildi.

Xususan, Jamiyatda “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida”gi nizom, “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”, Jamiyat xodimlarining “Odob-axloq qoidalari” va boshqa shu kabi 10 ga yaqin ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, Jamiyat xodimlarining korrupsion harakatlari yuzasidan xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari tashkil etilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar tashkilotning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoq kanallarida ochiq joylashtirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda “O'zkimyosanoat” AJ o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum, shuningdek, 2023-yilda tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashishda ustuvor vazifalarga oid chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, tizim xodimlari orasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga oid bir qator amaliy ishlar qilindi.

O'z navbatida, “O'zkimyosanoat” AJ korrupsion harakatlarning har qanday shakl va ko'rinishlarini rad etadi, Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan keskin murosasizlik shakllanishini ta'minlaydi, tizimda korrupsiyaning oldini olish va uning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga oid amaliy ishlarni olib boradi hamda qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilishga, halollik, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

Har birimiz bu ishda nafaqat mamlakatimizda qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga ongli ravishda rioya qilishimiz, balki bu ishga insoniylik burchimiz sifatida qarashimiz zarur.

Fursatdan foydalanib, hamkasblarimiz, hamkorlarimiz va yurtdoshlarimizni ish yuritish standartlariga amal qilishga, korrupsiyaga qarshi mavjud qonunchilik normalariga og'ishmay rioya etishga, har qanday korrupsion, manfaatlar to'qnashuvi va qonunbuzilish holatlari haqida o'z vaqtida tezkorlik bilan xabar berishda hamjihatlikka chaqiraman.

Hurmat bilan,

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi